

O‘rta Osiyo kashtachilik tarixi

Jumayeva Nargiza

Osiyo Xalqaro universiteti

"Pedagogika va psixologiya" magistratura

mutaxassisligi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘rta Osiya kashtachiligining qadimgi tarixi bayon etilgan bo‘lib, qadimgi xalqlar bizning hududlarda tayyorlangan kashtachilik buyumlarini e’tirof etishgani qadimgi yozma manbalarda, xususan zardushtiylikning ilohiy kitobi Avestoda zikr qilingan. Shuningdek, O‘rta asrlarda ham ushbu hunar turi takomillashgani turli xil arxeologik manbalar orqali tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: kashtachilik, ornament naqshlar, “anaxita”lar, so‘zani.

History of Central Asian embroidery

Jumayeva Nargiza

Asian International University

"Pedagogy and psychology" master's degree

student of specialization

Abstract: This article describes the ancient history of Central Asian embroidery, and it is mentioned in the ancient written sources, the Zoroastrian divine book Avesto, that the ancient peoples recognized the embroidery made in our region. Also, the development of this craft in the Middle Ages has been researched through various archeological sources.

Keywords: embroidery, ornament patterns, "anakhita", sozani.

Ipakchilik qadim davrlardan taraqqiy etgan Oʻrta Osiyoda kashtachilik xalq ijodining eng ommaviy demokratik shakllaridan biri boʻlib kelgan. Qadimdan ipak kashtachiligi bilan xotin-qizlar shugʻullanishgan. Oʻrta Osiyoning oʻzbek va tojik xalqi turmushida chiroyli tikilgan soʻzani, choyshablar, bolinpoʻsh, joypoʻsh va boshqalar juda keng tarqalgan.

Tadqiqotchilar Oʻrta Osiyo qadimgi vaqtlarda ham oʻzining gul solingan matolari bilan mashhur boʻlgan deb qayd qiladilar. Bular haqida zardushtiylarning muqaddas kitobi Avestoda (Xorazm eramizdan avvalgi 7 asr) Iskandar Zulqarnayn (Yunoniston Makedoniyalik Aleksandr Makedonskiy er.av. 4asr yurishlarini bayon etuvchi tarixchilarning kitoblarida, rimlik tarixchilar asarlarida, Xitoy manbalarida, ayniqsa arab tarixchilari Istahriy, Ibn Haukola va Narshaxiylar (10 asr) kitoblarida bu haqda maʼlumotlar bor. Bu manbalarda Oʻrta Osiyoning turli shahar va dehqonchilik rivojlangan qadimgi qishloqlarida toʻqilgan, gul solingan turli bezakli matolar, boy bezatilgan kiyimlar haqida yozilgan.)

Ammo bu manbalarda mualliflar xususan kashtachilik haqida alohida toʻxtalmaydilar. Shuning uchun ham arxeologlar qadimgi qabrlardan Noin-Uladaliklar (Shimoliy Moʻgʻiliston) sarkardasining maqbarasidan topilgan chavandoz gavdasi, odam basharasi va oʻsimliksimon ornamentli gul tikilgan qadimgi jun chodirlar katta eʼtiborga sazavordir.

Tadqiqotchilarning fikricha, chodirlar bizning eramizgacha ikkinchi asrlarda tikilgan boʻlib, hozirgi janubiy Oʻzbekiston va Tojikiston yerlarida yashagan qadimgi baqtriyaliklar tomonidan yaratilgan (er.av.2-eramizning 2 asrida hukmronlik qilgan Kushonlar imperiyasi).

Oʻzbekiston va Tojikistonning qadimgi shaharlarini tadqiq qilgan qadimshunos-arxeologlar topgan ashyoviy dalillarga tayanib gul solingan matolar haqida aniq tasavvurga ega boʻlamiz.

Xorazm xonlarining saroylaridan biri Tuproq qal’adagi (eramizning 3 asri) devoriy naqshlarida kashta solingan bezakli matolar tasvirlanganligini taniqli arxeolog S.P.Tolstov o‘zining “Qadimgi Xorazm madaniyati izidan” asarida ilmiy asoslab beradi. Surxondaryo viloyatidagi Bolalik tepadagi naqshlarda gul bosilgan va tikilgan matolar devoriy suratlarda (5 asr) uchrashini L.I.Albaum “Bolalik tepa” kitobida keltiradi. Buxorxudotlarning Varaxsha shahri hukmdorlar saroyi (7-8 asr) o‘ymakor va naqqoshlik suratlarida Tojikistonning Panjiksni shahri qal’asidagi devoriy naqshlar haykaltaroshligi va rang tasvirida kashta bezaklarida bezatilgan matolar uchraydi.

Samarqanddagi qadimgi Afrosiyob saroyi devoriy naqshlari (7-12 asrlar) ham O‘rta Osiyo xalqlarining kashtachilik san’ati haqida tasavvur beradi.

1403-1406 yillarda O‘rta Osiyoga elchi va sayyoh bo‘lib kelgan Sohibqiron Amir Temur saroyida qabulda bo‘lgan, 6 oy mobaynida Samarqandda yashagan Ispaniya qiroli Kastiliyo elchisi Ryui Gonsales de Klavixo o‘zining “Buyuk Temurlangning hayoti va faoliyati” kitobida O‘rta Osiyoning o‘rta asrlar matolari va kashta buyumlari haqidagi ta’rifni keltiradi. U “...bog‘da guldor gilamlar va har xil rangdagi shohi gazlamalardan tikilgan chodirlar tashlangan kapalar va shiypnlar qurilgan, shiypnning ichida ham, toshida ham jimjima gullar tikilgan rang-barang mato, xontaxta yoniga gul va eman daraxtining bargi va boshqa xil tasvirli naqshlar tikilgan shohi to‘shak to‘shalgan”-deb yozadi.

U o‘zining asarida Samarqand bog‘laridagi chodirlar, shiypnlar serhasham qilib bezatilgan shohi matolarga har xil quroq (aplekasiya) va kashta tikib tayyorlangan so‘zanilar osib qo‘yilganini bayon qiladi. Bu yerda Klavixo hatto gul nusxalari, ornament naqshlari, jimjima tasvirlar haqida ham bayon qiladi.

O‘rta Osiyo saroy hayoti, jumladan dekorativ matolar bezagi (15-16 asrlar) Hirot va Buxoro miniatyuralarida ma’lum darajada o‘z aksini topgan.

Mashhur naqqosh, miniatyurachi rassom “Sharq Rafaeli” deb nom olgan Kamoliddin Behzod (1456-1535yillar) va Hirot naqqoshlik maktabi ustalari yaratgan miniatyuralarida dekorativ matolar, so‘zanilar bezagi tasvirlangan.

Tarixchi Faxriddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asariga Behzod chizgan miniatyuralarida: “Temur taxtda”, “Temur raqs tomosha qilmoqda” deb nomlangan asarlarida chodirlardagi xuddi bir-biriga ulanib ketgan rango-rang guldor matodan kashta tikilgan, naqshlar qayrilma bandlik gul va barglar bilan bezatilganligini ko‘ramiz.

Shuningdek mashhur shoir, davlat arbobi, she‘riyat olamida “G‘azal mulkning sultoni” deb nom olgan Mir Alisher Navoiy, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlariga ishlangan miniatyuralarda ham kashta naqshlari tushirilgan so‘zanilar tasvirini uchratimiz. Qadimshunoslar O‘zbekiston hududidan topgan terakotadan yasalgan haykalchalar “anaxita”lar (sanamlar) kiyimlarida, 6-7 asrlarda saroylar devorlariga chizilgan kishilar kiyimlarida boy kashta naqshlarini uchratamiz.

Qadimgi so‘zanilarning bizgacha saqlanmaganligiga turli xil ob‘yektiv va sub‘yektiv sabablar mavjud: birinchidan so‘zaniga ishlatilgan matolar; kanop, lyon, paxta, ipak, junlarning tez yemirilishi bo‘lsa, ikkinchidan kashta buyumlarining xonadonda doimiy ishlatilganligidir. So‘zani inson tug‘ilganidan beshikdan to qabrgacha unga hamrohlik qilgan. Islomgacha bo‘lgan davrda hatto qabrga marhum bilan birga u tikkan yoki ishlatgan kashta buyumlari, kiyim-kechaklari bilan dafn qilingan. Uchinchidan: 8 asrdan e‘tiboran O‘rta Osiyoga islom dinining keng tarqalganidan keyin bu odatga chek qo‘yilsada, marhum jasadi ustiga yopib, qabrgacha kelgan so‘zanilarni uyga uch kungacha kiritmaganlar. Quyosh, oy va yulduzni uch kun ko‘rsin deb torga osib qo‘yganlar. Ba‘zan so‘zanini o‘likni yuvgan g‘assol-murdasho‘yga marhumning shaxsiy buyumlari qatori berib yuborilganligidir. To‘rtinchidan: so‘zanilar sotuvga

mo'ljallanmaganligidir. Ishlatilganda e'tiborsizlik qilinishi, keyingi avlodlar eski, uringan so'zanini sep ichida saqlashda har xil irim qilinishi, uni yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan. G'assol-murdasho'ylar marhumlarni kiyim boshlari, choynak, piyolasi va boshqalar bilan birga o'lik ustiga yopilgan so'zanini ham bozorda eski buyumlar sotadiganlar rastasida arzonga sotishgan. Kimlardir uni uy-ro'zg'orida eshiklarga osib, quyoshdan saqlanish uchun parda o'rnida, boshqasi so'zanilardan qop tikib, mayda chuyda solishga ishlatganlar va natijada ularni tez yo'qolib ketishiga sababchi bo'lganlar.

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi (19 asrning ikkinchi yarmi) mahalliy xalqning urf-odatlari, madaniyati va san'ati rus tadqiqotchilarining qiziqishiga sabab bo'ldi. Mahalliy bozorlarda yoymachi sotuvchilardan turli qo'lyozmalar, hunarmandchilik buyumlari, kiyim-kechaklar qatorida kashtachilik buyumlarini ham kolleksionerlar sotib olishi boshlandi. 19 asrning oxirgi choragida Sank-Petrburg, Moskva, Berlin singari shaharlarda uyushtirilgan ko'rgazmalarda so'zani namunalari ham namoyish etildi. Ularni ilk bor ko'rgan etnograf va san'atshunoslar hato qilib Eron gilamlari deb ataganlar.

Chet ellardagi kolleksiyalarni xalqqa tanitish esa, 19 asrning oxirida Stokgolamda F.R.Martinning O'rta Osiyo hunarmandchilik san'ati asarlaridan yig'ilgan ko'rgazmaning namoyishi bo'ldi. Uning kolleksiyasida 19 asrga ta'luqli Nurato va Buxoro so'zanilari ham bor edi.

Rus tadqiqotchilaridan birinchilardan bo'lib V.V.Stasov 1883 yilda N.Simakovning "O'rta Osiyo san'ati" albomining nashr etilishi munosabati bilan ilk fikrini bildirgan edi: ".....tikma, to'qima va yo'rma buyumlarga kelsak fikrimizcha, eng original va asosli ko'rinishlarni o'zida aks ettirgan O'rta Osiyo san'ati va uslubidan izlash kerak " degan edi.

V.L.Vyatkin o'zining "Afrosiyob" deb nomlangan kitobida devoriy suratlardagi kiyim va dekorativ matolar to'g'risida ma'lumot beradi. Sharqshunos,

xalqshunos olim G.V.Grigoryev xalq bezak san'ati tarixini tadqiq etgan "Tus do'ppisi" asarida yozadi(1937y). Rossiya Davlat Ermitajidagi sharq xalqlari to'plamiga mansub matolar tadqiqiga bag'ishlangan kitobida E.K.Kverfeld "Sefevidlar davri matoh va gilamlarida realistik tasvir" (1940y). kitobida kashtachilik namunalari haqida ham fikr yuritadi. Rus Turkistoni to'plamida 1872 yilda I.I.Krauze "Tuzemliklar bo'yoqchilik san'ati" asarida kashtachilik haqida ma'lumot beradi.

O'rta Osiyo xalqlari kashtado'zlik san'ati haqida alohida tadqiqotlar asosan 20 asrning 30 yillaridan boshlangan. Bu tadqiqotchilarning qaldirg'ochlari Ye.M.Pesherova va Antonina Konstantinovna Pisarchiklardir. Ular tojik va o'zbek kashtado'zligi to'g'risida asarlar, ilmiy maqolalar yozib, bu hunarni keng targ'ib qildilar. Bu borada A.K.Pisarchikning "Nurato kashtasi" qo'lyozmasi (O'zbekiston Davlat san'at muzeyi fondida) muhim ahamiyatga ega. O'zbek kashtado'zligi uslublari haqida R.Ya.Rassudovanning "Uzbekskiy xudojestvennyy shovyu" asari mukammal tadqiqotchilar qatoriga kiradi. O'rta Osiyo xalqlari kashtachiligidagi yirik dekorativ kashta sanalgan so'zanilar haqida mukammal izlanishlar mahsumi bo'lgan. G.L.Chepelevskayaning "O'zbekiston so'zanasi" asari kashtaning noyob turi haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lib, o'zbek kashtachiligining yirik maktablari, ularning o'ziga xosligi, farqlari, naqsh, kompazisiya, ornament va ranglari (koloriti) haqida chuqur izlanishlar natijasi sanaladi.

1930-1950yillarda Samarqand muzeyida ilmiy faoliyat olib borgan xalqshunos (etnograf) olima O.A.Suxarevaning "Suzani sredneaziatskaya dekorativnaya vyshivka" monografiyasi, uning vafotidan ancha keyin 2006 yilda Moskvada chop qilinishi o'zbek so'zani san'ati haqidagi bilimni oshirishga yordam berdi.

Bu borada o'zbek kashtachiligi va so'zani san'ati tarixini o'rgangan, uni tadqiq qilgan mahalliy mutaxasislardan M.A.Bekjonova, Dinora Faxriddinova,

Akbar Hakimov, Surayyo Aliyeva, Shahlo Abdullayeva, Elmira Gyul va Qoryog‘di Jumayevlar monigrafiya va ilmiy maqolalari ham diqqatga sazavordir.

Tojik xalqi kashtado‘zligi to‘g‘risida Isayeva-Yusupovaning xizmatlari katta. Uning tojik kashtado‘zligi kitob albomi 1979 yil Moskvada chop etilgan.

Qirg‘iz xalq kashtado‘zligi tarixi bo‘yicha V. Chepelovning izlanishlarini e‘tirof etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chepeleveskaya G. L. “Suzani Uzbekistana”. Toshkent, 1961.
2. Tolstov S. P. “Drevniy Xorezm” Moskva, 1948.
3. Albaum L. I. “Balalik tepe” Toshkent, 1960.
4. Klavixio Rui de Gonsales “Dnevnik puteshestviya ko dvoru Timura v Samarkande v 1405-1406 godax, Sankt – Peterburg, 1881
5. Pisarchik A. K. “Nurota kashtasi” O‘zbekiston davlat san’at muzeyi hujjatlar fondi.
6. Vyatkin V. L. “Afrosiyob”, Toshkent, 1927
7. Grigoryev G. V. “Tus do‘ppisi”. Toshkent, 1937.
8. Kverfeld Ye. K. Cherty realizma v risunkax na tkanax i kovrax vremeni Sefevidov. Trudy Otdela istorii kultury v isskustve Vostoka Gosudarstvennogo Ermitaja. Toshkent, 1940.
9. Rassudova L. Ya. Uzbekiskiy xudojestvennyy shov. Tashkent, 1966
10. Suxareva O. A. “Suzani sredneaziatskaya dekorativnaya vyshivka” Moskva, 2006
11. Stasov V. V. Sochineniya, tom 2, Sankt – Peterburg, 1894
12. B. P. Deniks “Urta Osiyo tasviriy sanati”, “Sovet sharkining badiiy sanati” tuplami. Moskva - Leningrad, 1940

13. V. A. Voronina, Uzbekiston arxitekturasida xalk tradisiyasi. Moskva, 1951.